

RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH IMKONIYATLARI

Nasriyeva Dilafruz Muhiddinovna

*Buxoro muhandislik texnologiyasi instituti huzuridagi
Shofirkon qishloq xo'jaligi mahsulotlari texnologiyasi texnikumi
Katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning jamiyatdagi ahamiyati, raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobining o'rni, Buxgalteriya hisobini axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, uning afzalliklari va kamchiliklari bayon etilgan. Shuningdek raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida buxgalteriya hisobida ro'y berayotgan o'zgarishlarning dolzarbligi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan yangi boshqaruv texnologiyalarini izlash, raqobatbardosh ustunlikka erishish va shakllantirish zarurligi tasvirlangan

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, axborot texnologiyalari, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi rolini tubdan oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotning rivojlanishi, aholi sonining oshishi, resurslarning cheklanganligi, undan oqilona foydalanish zaruriyati, informatsion ma'lumotlarning ko'payishi iqtisodiyotni raqamlashtirish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda iste'mol tovarlari xarid qilishda, maishiy xizmatlar va umuman, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim tarbiyaga ham "raqamli iqtisodiyot" shiddat bilan kirib kelmoqda. Hayotimizda elektron mahsulot va xizmatlarning kirib kelishi, elektron tijorat jarayonlari, pul o'tkazmalarining elektron tarzda amalga oshirilishi, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarni boshqarish va ular bilan ishlash kabi masalalar fikrimiz dalilidir.

"Raqamli iqtisodiyot" atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu atamani turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ayrim adabiyotlarda "**Raqamli iqtisodiyot** – bu raqamli texnologiyalardan foydalaniladigan iqtisodiy ishlab chiqarish" deb talqin qilingan bo'lsa ba'zi adabiyotlarda "**Raqamli iqtisodiyot** ma'lumot va ma'lumotning moddiy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda, shuningdek, ularni saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun raqamli texnologiyalardan faol foydalanish bilan tavsiylanadigan zamonaviy iqtisodiyot turi" deb yoritiladi. Umuman olganda, raqamli

iqtisodiyotni - iqtisodiy munosabatlarni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalardan faol foydalangan holda ish yuritish deb tushunsak bo'ladi.

Ma'lumki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot qo'shimcha qiymat yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli xil algoritmlar, jarayonlar va raqamli axborotlar korporativ biznesning strategik rivojlanishida asosiy hal qiluvchi kuchga ega bo'lmoqda. Raqamli nomoliyaviy omillar banklarning raqobatbardoshligini belgilab bermoqda, samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo iqtisodiyotining va axborot texnologiyalarining rivojlanishi buxgalteriya hisobini ham rivojlanishiga asos yaratdi.

Chunki raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirishni talab qiladi, bu esa buxgalteriya hisobi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Buxgalteriyada axborot texnologiyalaridan foydalanish xarajatlarni kamaytirish, inson omili ta'sirini kamaytirish va ishni tezlashtirish orqali tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda, bozor iqtisodiyoti sharoitida deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Buxgalteriyada axborot texnologiyalaridan foydalanishning eng keng tarqalgan namunasi bu buxgalteriya dasturlari hisoblanadi. Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar asosan quyidagi dasturlardan foydalanadilar: 1C, 1Uz, UzAsbo, BEM va hokazo. Buxgalteriya hisobining bu dasturlari tashkilotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda buxgalteriya siyosatining parametrlarini sozlash, dastlabki hujjatlarni yaratish, hisobotlarni tuzish, tashkilotlarda buxgalteriya hisobi talablariga muvofiq kataloglarni sozlash imkonini beradi. Shuningdek quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda qayta ishlash;
- analitik ma'lumotlarni idrok qilish uchun qulay bo'lgan shaklda taqdim etish (diagrammalar, grafikalar, jadvallar);
- asosiy hujjatlardagi rekvizitlarni avtomatik to'ldirish
- hisobot registrlarini shakllantirish (hisob-kitob-to'lov bayonnomalari, aylanma-balans varaqalari, kassa kitobi);
- qog'oz tashuvchilar sonini kamaytirish;
- boshqaruv va bo'ysunuvchilar, tashkilot bo'linmalari o'rtasida darhol ma'lumot almashish;
- arifmetik xatolarni istisno qilish;
- nazorat qiluvchi davlat organlari va banklar bilan onlayn muloqot;
- qonunchilikni o'zgartirishga tezkor javob berish qobiliyati.

Bunday afzalliklar har bir xo'jalik yurituvchi subyekt uchun rivojlanish dastagi hisoblanadi. Ammo bu dasturlarda ishlash uchun mutaxassislarning yetishmasligi,

daturning narxi har qanday xo'jalik yurituvchi uchun to'g'ri kelmasligi, normativ hujjatlar yangilangandagi jarayonlar biroz noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda korxonalarda ma'lumotlar bazasini yaratish va ularni saqlashda raqamli texnologiyalar judayam ahamiyatga ega. Korxonalarda buxgalteriya hisobi registrlarini to'g'ri va tizimli yuritishda va buxgalteriya provodkalarini to'g'ri amalga oshirishda judayam aniqlik kerak bo'ladi va xatolarni kamaytirish va osongina tuzatish, ish joyi va vositasining ahamiyatini kamaytirishga keng ma'noda bizga raqamli texnologiyalar judayam katta yordam beradi. Mehnat samaradorligini oshirishda, operativ hisob va hisobotlarni muntazam nazorat qilib borish, mahsulot tannarxi va kalkulyatsiyani aniq hisob-kitob qilish, moliyaviy axborotlar va hujjatlarni tezkor aylanishini ta'minlashda, buxgalteriya va soliq hisobotlarini to'g'ri shakllantirishda va hisob yuritish bilan bog'liq harajatlarini tejashda bizga raqamli texnologiyalar judayam katta yordam beradi. Shulardan kelib chiqib shuni aytish mumkin, texnologiyadagi o'zgarishlar buxgalteriyaning o'zgarishiga olib keldi, bu esa olimlar va amaliyotchilarning asosiy tushunchalar modelini shakllantirish, qonunchilikni ishlab chiqish, me'yoriy hujjatlar, yangi raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi bo'yicha ko'rsatmalar va qoidalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zR qonuni (yangi tahrir). 13.04.2016 y. № O'zRQ-404
2. 'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent sh., 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832 sonli. <https://lex.uz/docs/3806053>
3. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi.<https://kun.uz/uz/99444746>.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyot-sharoitida-buxgalteriyahisobini-avtomatlashtirishning-rol-i-va-ahamiyati>
5. www.my.gov.uz